

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.05/30.10.2020.**

Qx.126.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

ESHMURODOVA MAVLUDA QODIRALIYEVNA

**QO‘SHQATORLAB EKILGAN G‘O‘ZANING O‘SISHI, RIVOJLANISHI VA
HOSILDORLIGIGA TUP SON QALINLIGINING TA‘SIRI**

06.01.08 –“O‘simlikshunoslik”

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Andijon - 2023

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

**Content of the abstract of (PhD) doctoral dissertation of agricultural
sciences**

Eshmurodova Mavluda Qodiraliyevna

Qo‘shqatorlab ekilgan g‘o‘zaning o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga tup
son qalinligining ta’siri.....3

Эшмуродова Мавлуда Қодиралиевна

Влияние густоты стояния растений при двухстороннем посеве на рост,
развитие и урожайность хлопчатника21

Eshmurodova Mavluda Qodiraliyevna

The effect of the density of standing plants during two-line sowing on
the growth, development and yield of cotton.....22

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 38

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.05/30.10.2020.Qx.126.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

ESHMURODOVA MAVLUDA QODIRALIYEVNA

**QO‘SHQATORLAB EKILGAN G‘O‘ZANING O‘SISHI, RIVOJLANISHI VA
HOSILDORLIGIGA TUP SON QALINLIGINING TA‘SIRI**

06.01.08 – “O‘simlikshunoslik”

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Andijon - 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.4.PhD/Qx528 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.andqxai.uz) va “ZiyoNet” axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Oripov Razzoq Oripovich**
qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Abduraxmonov Sodiqjon Obidovich**
qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor.

Tursunov Ibroximjon Abduxalimovich
qishloq xo‘jaligi falsafa fanlari doktori, dotsent.

Yetakchi tashkilot: **Toshkent davlat agrar universiteti**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya himoyasi Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi PhD.05/30.10.2020.Qx.126.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «___» _____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170600, Andijon tuman, Kuyganyor shaharchasi, Oliygo‘h ko‘chasi, 1-uy. Tel: (99874) 373-10-54; faks: (+99874) 373-13-63; e-mail: agai_info@edu.uz; Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti ma‘muriy binosi, 1 qavat, anjumanlar zali).

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bilan Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№__ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 170160, Andijon tumani, Kuygan yor shaharchasi, Oliygo‘h ko‘chasi, 1-uy. Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Axborot-resurs markazi binosi. Tel: (+99874) 373-10-54.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “___” _____ da tarqatildi.
(2023-yil “___” _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

A.Isashov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
raisi, q.x.f.d., professor.

A.N.Jo‘rayev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, q.x.f.f.d., dotsent.

K.S.Komilov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
q.x.f.n., dotsent.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda “Dunyoning 90 dan ortiq mamlakatlarida yiliga 26,2 mln tonnadan ortiq paxta tolasi yetishtirilib, shundan, 79,7 foizi Hindiston, Xitoy, AQSh, Pokiston va O‘zbekiston davlatlari hissasiga to‘g‘ri keladi”¹. Dunyo aholisini tola mahsulotlariga, ishlab chiqarish sanoatini esa xomashyoga bo‘lgan talabini bir me‘yorda qondirishda asosiy e‘tibor g‘o‘za navlaridan yuqori va sifatli tola hosili yetishtirishga qaratilgan bo‘lib, bu borada jahon andozalariga mos tola beruvchi yangi navlarni maqbul ko‘chat qalinligini hamda mineral o‘g‘itlar bilan oziqlantirish me‘yorlarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan biridir.

Dunyoning paxtachilik tarmog‘i rivojlangan mamlakatlarda yaratilgan har bir g‘o‘za navini mintaqalar kesimida ekish muddati va maqbul ko‘chat qalinligi hamda mineral o‘g‘itlar bilan oziqlantirish me‘yorlari ishlab chiqilganlik asnosida, to‘qimachilik sanoatini talablariga mos tola yetishtirib kelinmoqda. Bugungi kunda sug‘oriladigan maydonlardan unumli foydalanish maqsadida navlarni potensial imkoniyatlarini ishga solgan holda yuqori va sifatli tola yetishtirishda resurstejamkor agrotexnologiyalardan samarali foydalanish, har bir ekishga tavsiya etilgan navlarni biologik va morfologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yetishtirishning zamonaviy agrotexnologiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirib borish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda respublikamizning 1,4 mln gektar sug‘oriladigan maydonida g‘o‘za navlari parvarish qilinib, yiliga 1,0 mln tonna atrofida tola yetishtirilib kelinmoqda. Keyingi paytlarda Respublikamiz Prezidentining tashabbuslari bilan paxtachilik klasterlari tashkil etildi va qishloq xo‘jaligiga xorijdan katta miqdorda investitsiyalarni olib kirish jadallashdi. G‘o‘za navlaridan ertaki va yuqori paxta hosili yetishtirishda klasterlar tomonidan, tuproqning unumdorlik xususiyatlarini hisobga olgan holda, chigitlarni turli ekish tizimlarida ekish orqali ko‘chat qalinliklarini gektariga 200 minggacha oshirib borishga, ko‘chat qalinliklariga bog‘liq holda mineral o‘g‘itlar bilan oziqlantirishda maqbul me‘yorlarini ishlab chiqishga katta e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”²gi PQ–5009 sonli, 2022-yil 7-iyuldagi “Paxta hosildorligini oshirish, paxta yetishtirishda ilm va innovatsiyalarni joriy qilishning qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”³gi PQ-308 sonli qarorlarida belgilangan vazifalarni ijrosini ta‘minlashda g‘o‘za navlarini ko‘chat qalinligini hamda mineral o‘g‘itlarga bo‘lgan talabini mintaqaning tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamiz qishloq xo‘jaligi ekinlarni yetishtirishda resurstejamkor agrotexnologiyalardan keng ko‘lamli foydalanish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi

¹ <https://www.atlasbig.com/ru/>

² <https://www.norma.uz/>

³ <https://www.yuz.uz/uz/news/>

Prezidentning 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-sonli Farmonida “Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash” bo’yicha hamda 2022-yil 28-yanvardagi PQ-106-son “Qishloq xo’jaligi ekinlari urug’chiligini yanada rivojlantirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”⁴ gi qarori va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining asosiy ustuvor yo’nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo’jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo’nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o’rganilganlik darajasi. Respublikamizning turli tuproq-iqlim sharoitlarida g’o’za navlarini o’sishi, rivojlanishi va paxta hosildorligiga hamda tolaning sifat ko’rsatkichlariga turli ekish tizimlari va ko’chat qalinliklarining ta’sirini aniqlash bo’yicha respublikamiz olimlaridan B.M.Xaliqov A.Avliyoqulov, Q.Mirzajonov, Sh.Teshayev, N.O’razmatov, Sh.Nurmatov, Sh.Salomov, S.Ubaydullayev, S.Bo’riyev, B.Raxmatov, E.Abduraxmonov, I.Raxmatov, M.Tojiyev, R.Nazarovlar, xorijiy olimlardan Tian Li Wen, Hu Bang, F.G.Gregory, H.B.Brownlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Biroq Samarqand viloyatining qadimdan sug’oriladigan tipik bo’z tuproqlari sharoitida g’o’zaning ertapishar “Omad” navini turli ekish tizimlarida ekib, turli ko’chat qalinligida parvarish qilishni o’sishi, rivojlanishi va paxta hosildorligiga hamda tolaning texnologik sifat ko’rsatkichlariga ta’sirini aniqlash bo’yicha ilmiy-tadqiqot ishlari yetarli darajada o’rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining ilmiy ish bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog’liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand veterinariya meditsinasi instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №QX-A-QX-2018-270 “Respublika hududlarining tabiiy-iqlim sharoitlariga mos g’o’za, kartoshka, kungaboqar, sabzavot (shirin) makkajo’xori, topinambur (yer noki) hamda batatning yangi nav va duragaylarini yaratish” va № QX-A-QX-2018-271 “Respublikaning turli iqlim va tuproq sharoitlarida yangi, istiqbolli g’o’za hamda rayonlashgan kartoshka, kungaboqar, sabzavot (shirin) makkajo’xori, topinambur va batat ekinlarining birlamchi urug’chiligi tizimini takomillashtirish” kabi amaliy loyihalari doirasida bajarilgan (2018-2020-yy).

Tadqiqotning maqsadi Samarqand viloyatining qadimdan sug’oriladigan tipik bo’z tuproqlari sharoitida g’o’zaning ertapishar “Omad” navini o’sishi, rivojlanishi va paxta hosildorligiga hamda tolaning texnologik sifat ko’rsatkichlariga turli ko’chat qalinligida parvarish qilishning ta’sirini aniqlashdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

- chigitlarni dala unuvchanligi va ko’chat qalinligiga ekish usullarining ta’sirini aniqlash;
- g’o’zaning barg sathi, biologik quruq massa to’plashiga chigitlarni ekish usullari va ko’chat qalinliklarining ta’sirini aniqlash;
- g’o’zani o’sishi va rivojlanishiga, hosil elementlarining shakllanishiga

⁴ <https://lex.uz/uz/docs/-5840120>

chigitlarni ekish usullari va ko'chat qalinliklarining ta'sirini aniqlash;

- ko'chatlarni vilt bilan kasallanish darajasiga chigitlarni ekish usullari va ko'chat qalinliklarining ta'sirini aniqlash;

- paxta hosildorligiga chigitlarni ekish usullari va ko'chat qalinliklarining ta'sirini aniqlash;

- tolaning texnologik sifat ko'rsatkichlariga chigitlarni ekish usullari va ko'chat qalinliklarining ta'sirini aniqlash;

- chigitlarni turli usullarda ekib, turli ko'chat qalinliklarida parvarishlashni iqtisodiy samaradorligini aniqlash;

Tadqiqotning obyekti. Samarqand viloyatining eskidan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlari hamda g'o'zaning ertapishar «Omad» navi, tup son qalinligi va mineral o'g'it me'yorlari.

Tadqiqotning predmeti. G'o'za chigitlarini turli usullarda ekish va mineral o'g'itlarning turli me'yorlari bilan oziqlantirish, ko'chat qalinligi, o'sib-rivojlanishi, barg sathi, biologik quruq massa to'plashi, hosil elementlarining shakllanishi, paxta hosildorligi hamda hosilning sifat ko'rsatkichlari va iqtisodiy samaradorliklarini o'z ichiga oladi.

Tadqiqotning usullari. Dala va laboratoriya tajribalarini olib borishda hisoblashlar va kuzatishlar "Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур" (Т.1963), «Dala tajribalarini o'tkazish uslublari» (O'zPITI 2007), "Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах" (СоюзНИХИ, 1963) uslubiy qo'llanmalari asosida olib borilgan. Olingan natijalar Microsoft Excel dasturi va В.А.Доспеховning "Методика полевого опыта" (М.1985) uslubiy qo'llanmasi asosida statistik tahlildan o'tkazildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- ilk bor Samarqand viloyatining eskidan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlari sharoitida kuzgi pushtalarga yakkaqator va qo'shqator usulida chigit ekib, g'o'zaning "Omad" navidan yuqori va sifatli paxta hosili etishtirishda maqbul tup son qalinligi hamda mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish me'yorlari ishlab chiqilgan;

- chigitlar bahorda tekis yerga yakkaqator usulida, 110-120 ming tup/ga nazariy ko'chat qalinligida ekilganga nisbatan kuzda pushta olib, bahorda yakkaqator qilib 110-120 ming tup/ga nazariy ko'chat qalinligida ekish ko'chat qalinligini 3,6 ming tup/ga dan 4,1 ming tup/ga gacha, 140-150 ming tup/ga nazariy ko'chat qalinligida 29,6 ming tup/ga dan 29,8 ming tup/ga gacha, 150-160 ming tup ko'chat qalinligida 38,1 ming tup/ga dan 38,7 ming tup/ga gacha, bahorgi pushtaga qo'shqator qilib 150-160 ming tup/ga nazariy ko'chat qalinligida ekilganga nisbatan kuzda pushta olinib, bahorda 150-160 ming tup/ga nazariy ko'chat qalinligida ekilganida 9,3 ming tup/ga dan 9,6 ming tup/ga gacha, 170-180 ming tup nazariy ko'chat qalinligida ekilganida 26,3 ming tup/ga dan 26,9 ming tup/ga gacha yuqori bo'lishi isbotlangan;

- bir o'simlikda ko'saklar sonini ko'chat qalinliklariga bog'liq holda kamayib borishi kuzatilib, bahorda tekis maydonga yakka qator qilib 110-120 ming tup/ga ko'chat qalinligida ekilganga nisbatan kuzgi pushtaga yakkaqator qilib 140-150 ming tup/ga nazariy ko'chat qalinligida, mineral o'g'itlarning N₂₀₀P₁₄₀K₁₀₀ kg/ga

me'yorlari bilan oziqlantirilganida 0,4-1,0 donaga, mineral o'g'itlarning $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga me'yorlari bilan oziqlantirilganida, 150-160 ming tup/ga nazariy ko'chat qalinligida 1,0-1,1 donagacha, mineral o'g'itlarning $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga me'yorlari bilan oziqlantirilib, bahorda pushtaga qo'shqator qilib 150-160 ming tup/ga ko'chat qalinligida ekilganga nisbatan, mineral o'g'itlarning $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga me'yorlari bilan oziqlantirilgan, kuzgi pushtaga 150-160 ming tup/ga nazariy ko'chat qalinligida 0,2-0,6 donaga, mineral o'g'itlarning $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga me'yorlari bilan oziqlantirilgan, 170-180 ming tup/ga ko'chat qalinligida 0,5-0,7 donagacha kamayib borganligi aniqlangan;

- mineral o'g'itlar me'yorlari hamda ko'chat qalinliklarini paxta hosildorligiga ta'siri sezilarli bo'lib, yuqori paxta hosildorligi kuzgi pushtaga yakkaqator qilib, 110-120 ming nazariy ko'chat qalinligida ekilib, mineral o'g'itlarning $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga me'yorlari bilan oziqlantirilganida 36,8 s/ga ni tashkil etgan bo'lsa, kuzgi pushtaga qo'shqator qilib, 170-180 ming tup/ga nazariy ko'chat qalinligida mineral o'g'itlarning $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga me'yorlari bilan oziqlantirilganida 40,8 s/ga paxta hosili olishga erishilganligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Samarqand viloyatining eskidan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlari sharoitida «Omad» g'o'za navini yuqori ko'chat qalinligiga erishish uchun yakkaqator usulda ekishda kuzda pushta olinib, mineral o'g'itlar bilan $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga me'yorida oziqlantirilib, bahorda 150-160 ming tup/ga nazariy ko'chat qalinligida ekish chigitlarni dala unuvchanligini 88,5-88,6 foizga, amal davri oxirida haqiqiy ko'chat qalinligini 38,1-38,7 ming tup/ga gacha, mineral o'g'itlar bilan $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga me'yorida oziqlantirilib, qo'shqator usulda ekilganida kuzgi pushtaga 170-180 ming tup/ga nazariy ko'chat qalinligida ekish urug'larning dala unuvchanligini 91,0-91,2 foizga, amal davri oxirida haqiqiy ko'chat qalinligini 26,3-26,9 ming tup/ga gacha yuqori bo'lganligi aniqlangan;

- g'o'za o'simligini barg sathi va biologik quruq massa to'plashiga ko'chat qalinliklari hamda mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish me'yorlariga bog'liq holda o'zgarib borishi kuzatilib, bahorda tekis maydonga yakkaqator qilib, 110-120 ming tup/ga nazariy ko'chat qalinligida ekilganga nisbatan mineral o'g'itlar bilan $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga me'yorida oziqlantirilib, kuzgi pushtaga yakkaqator qilib, 150-160 ming tup/ga nazariy ko'chat qalinligida ekilganida bir o'simlikning barg sathi 841,8-855,9 sm^2 gacha, biologik quruq massa to'plashi 22,6-26,3 g gacha, bahorda pushta olib, mineral o'g'itlar bilan $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga me'yorida oziqlantirilib, qo'shqator qilib, 150-160 ming tup/ga nazariy ko'chat qalinligida ekilganga nisbatan mineral o'g'itlar bilan $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga me'yorida oziqlantirilib, kuzgi pushtaga 170-180 ming tup/ga nazariy ko'chat qalinligida ekilganida bir o'simlikning barg sathi 952,3-954,8 sm^2 gacha, biologik quruq massa to'plashi 4,8-10,9 g gacha kam bo'lganligi kuzatilgan;

- ko'chat qalinligining ortib borishi bir o'simlikda ko'saklar sonining kamayib borishiga sabab bo'lishi kuzatilib, bahorda tekis maydonga 110-120 ming tup/ga nazariy ko'chat qalinligida ekilib, mineral o'g'itlarning $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga me'yorlari bilan oziqlantirilganga nisbatan kuzgi pushtaga bahorda 110-120 ming tup/ga nazariy

ko'chat qalinligida parvarish qilinib, mineral o'g'itlarning $N_{150}P_{105}K_{75}$ va $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga me'yorlari bilan oziqlantirilganida bir tupda ko'saklar soni 0,8-0,9 donaga ortgan bo'lsa, nazariy ko'chatlar soni 140-150 ming tup/ga nazariy ko'chat qalinligida 1,0-1,3 donaga, 150-160 ming tup/ga nazariy ko'chat qalinligida 1,0-1,1 donaga kamayganligi, bahorda pushta olib, qo'shqator qilib, 150-160 ming tup/ga nazariy ko'chat qalinligida parvarish qilinganga nisbatan kuzgi pushtaga qo'shqator qilib 150-160 ming tup nazariy ko'chat qalinligida 0,2-0,6 donaga, 170-180 ming tup ko'chat qalinligida 0,5-0,7 donaga kamayib borganligi aniqlangan;

- turli ko'chat qalinligida va mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish me'yorlarida parvarishlashni paxta hosildorligi va rentabellik ko'rsatkichlariga ta'siri aniqlanganida yuqori hosildorlik chigitlarni yakkaqator usulida ekilganda kuzgi pushtaga 110-120 ming tup/ga nazariy ko'chat qalinligida parvarish qilinib, mineral o'g'itlarning $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga me'yorlari bilan oziqlantirilganida olinib, paxta hosili 36,8 s/ga, rentabellik ko'rsatkichi 24,2 foizni, qo'shqator usulida ekilganida esa kuzgi pushtaga 170-180 ming tup/ga nazariy ko'chat qalinligida parvarish qilinib, mineral o'g'itlarning $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga me'yorlari bilan oziqlantirilgan variantda kuzatilib, paxta hosili 40,8 s/ga, rentabellik darajasi 41,2 foizga teng bo'lganligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dala va laboratoriya tajribalari uslubiy jihatdan to'g'ri o'tkazilganligi, dissertatsiya ishida qo'llanilgan uslublarning tadqiqotlarni bajarishga mosligi, olingan ma'lumotlar mutaxassislar tomonidan ijobiy baholanganligi, ilmiy nashrlarda chop etilganligi, tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga keng joriy etilganligi, Respublika va xalqaro ilmiy konferensiyalarda ma'ruzalar qilinganligi ilmiy ishning ishonchliligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, Samarqand viloyatining eskidan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlari sharoitida chigitni kuzgi pushtalarga qo'shqatorlab ekish tuproqning agrofizik xossalriga, chigitni erta va baquvvat unib chiqishiga, o'suv davrining davomiyligiga, barg sathi va biologik quruq modda to'plash ko'rsatkichiga, o'simlikning bo'yi, hosil shohlari va hosil elementlarining shakllanishiga, hosildorligiga, paxta hosilining texnologik sifat ko'rsatkichlarining yuqori, bo'lishi bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, "Omad" g'o'za navi chigitlarini kuzgi pushtaga yakkaqator usulida 140-150 ming tup son qoldirish hamda $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga ma'danli o'g'it me'yorlarini qo'llash va kuzgi pushtaga qo'shqator usulida gektariga 170-180 ming tup son qoldirib, $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga ma'danli o'g'it me'yorlarini qo'llagan holda nihollarni parvarishlash orqali chigitlarni an'anaviy usullarga nisbatan erta va to'liq undirib olish, amal davri oxiriga borib g'o'zaning "Omad" navidan tekis yerga oddiy usulda chigit ekishga nisbatan 10-12 kun ertaki paxta hosilini pishib etilishi va olinadigan hosilining gektaridan 6,5 s/ga ortganligi, hamda 10-15 foizga yuqori tola sifatiga erishilganligi bo'yicha ishlab chiqarishga tavsiyalar berilganligi va keng joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi

Samarqand viloyatining eskidan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlari sharoitida g'ozaning «Omad» navini kuzgi pushtalarga qo'shqator ekish usulida maqbul tup son qalinligini yaratish va uning samaradorligini aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

- paxtachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari uchun "Chigitni qo'shqatorlab ekish muddati va me'yorlari" nomli tavsiyanoma ishlab chiqilgan. (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022-yil 21-sentabrdagi 07/22-04/6751-son ma'lumotnomasi). Mazkur tavsiyanoma fermer xo'jaliklarida qo'shqator usulida paxta yetishtirishda muhim ko'rsatma sifatida xizmat qilmoqda;

- g'ozaning "Omad" navini turli ko'chat qalinligida parvarishlash texnologiyasi Pstdarg'om tumani "Usto Temir" fermer xo'jaligida 53 gektar, "Firdavs Farrux Xaydarov chashmasi" fermer xo'jaligida 41 gektar, jami 94 gektar maydonda joriy etilgan. (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022-yil 21-sentabrdagi 07/22-04/6751-son ma'lumotnomasi) Natijada chigitlarini kuzgi pushtalar yakkaqator usulida 140-150 ming tup/ga, va qo'shqator usulida 170-180 ming tup/ga ekish orqali yuqori smaradorlikka erishilgan;

- kuzgi pushtaga yakkaqator usulida 140-150 ming tup/ga va qo'shqator usulida 170-180 ming tup/ga ko'chat qalinligida parvarishlash orqali gektaridan 37,2-40,8 sentnerdan paxta hosili olishga erishilgan. (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022-yil 21-sentabrdagi 07/22-04/6751-son ma'lumotnomasi). Natijada umumiy daromad gektaridan 25,3-26,9 mln so'mni, sof daromad 5,7-8,0 mln so'mni, rentabellik darajasi 29-41% ni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari har yili Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti aprobatsiya komissiyasi tomonidan ko'rikdan o'tkazilib, ijobiy baholangan, hisobotlar universitetning uslubiy va ilmiy kengashlarida muhokama qilingan. Dissertatsiya ishining asosiy ilmiy natijalari bo'yicha 4 ta, shundan, 2 ta Respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruzalar qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy maqola hamda 1 ta tavsiyanoma, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 1 ta xorij jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan dissertatsiya ishining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan bo'lib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obyekt va predmetlari tavsiflangan. Respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqot usullari, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan

natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“G‘o‘zani qo‘shqatorlab ekish usullari, tup son qalinligi va oziqlantirish me‘yorlarining samaradorligini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida mavzu bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy-tadqiqotlar ishlari yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan bo‘lib, chigit ekish usullari bo‘yicha olib borilgan dastlabki ishlar, g‘o‘za navlari xususiyatlariga chigit ekish usullarining ta’siri bo‘yicha ilmiy tadqiqotchilarning o‘z davrida olib borgan izlanishlari natijalari, g‘o‘zaning o‘sib rivojlanishiga chigit ekish usullari va tup son qalinligini ta’siri, g‘o‘za navlarining optimal rivojlanishi uchun qo‘llanilgan o‘g‘it me‘yorlari, maqbul tup son qalinliklarini aniqlash bo‘yicha ko‘plab ilmiy nashrlar asosida adabiyotlar tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot o‘tkazilgan joyning geografik o‘rni, tuproq iqlim sharoiti, tadqiqot olib borish usuli va uslubi, tajriba dalasida qo‘llangan agrotexnologik tadbirlar”** deb nomlangan ikkinchi bobida tajriba o‘tkazilgan mintaqaning geografik o‘rni, tadqiqotlar o‘tkazilgan hududning tuproq-iqlim sharoitlari va tadqiqot o‘tkazish uslublari, tajribada ekilgan g‘o‘za navining tavsifi hamda tajribada qo‘llanilgan agrotexnologik tadbirlar, tajribada o‘rganilgan g‘o‘za navining tavsifi va tasnifi bayon etilgan.

Tadqiqotning dala tajribalari Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumanidagi, “Usto Temir” fermer xo‘jaligida 2019-2021-yillarda o‘tkazilgan.

Har yili tajriba maydoni tanlanganidan so‘ng, amal davri boshida tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamlaridan tuproq na‘munalari olinib, agrokimyoviy, agrofizik hamda suv fizik xususiyatlari o‘rganib chiqilgan.

1-jadval

Tajriba dala tuprog‘ining amal davri boshida agrokimyoviy xususiyatlari

Yillar	Tuproq qatlam-lari, sm	Gumus, %	Umumiy shakllari, %			Harakatchan shakllari, mg/kg		
			N	P	K	N-NO ₃	P ₂ O ₅	K ₂ O
2019	0-30	0,898	0,092	0,122	2,10	8,67	22,65	175
	30-50	0,762	0,065	0,096	1,76	6,25	16,74	135
2020	0-30	0,854	0,088	0,115	2,04	8,52	21,37	165
	30-50	0,757	0,062	0,090	1,70	5,97	16,30	130
2021	0-30	0,912	0,098	0,128	2,27	9,02	22,85	185
	30-50	0,768	0,070	0,104	1,86	6,53	17,15	140

Olingan natijalarning ko‘rsatishicha, amal davri boshida (2019-2020-2021-yy.) tuproqning 0-30 sm qatlamida gumus miqdori 0,898 foizni, oziqa elementlarining umumiy shakllaridan azot 0,092 foizni, fosfor 0,122 foizni, kaliy 2,10 foizni, harakatchan shakllaridan N-NO₃ – 8,67 mg/kg, P₂O₅ – 22,65 mg/kg, K₂O – 175 mg/kg ni tashkil etganligi aniqlangan bo‘lsa, tuproqning 30-50 sm qatlamida gumus

miqdori 0,762 foizni, oziqa elementlarining umumiy shakllaridan azot 0,065 foizni, fosfor 0,096 foizni, kaliy 1,76 foizni, harakatchan shakllaridan N-NO₃ – 6,25 mg/kg, P₂O₅ – 16,74 mg/kg, K₂O – 135 mg/kg ni ko'rsatganligi kuzatilgan.

Keltirigan ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, tanlangan dala tuproqlari nitrat bilan juda kam, fosfor va kaliy bilan kam darajada ta'minlanganligi qayd etilgan.

Tuproq holatini ko'rsatuvchi qimmatli xususiyatlardan yana biri bu uning agrofizik va suv fizik xossalari bo'lib, tuproq hajm massasi, g'ovakligi va suv o'tkazuvchanligidir.

Ushbu holatlarni inobatga olgan holda har yili tajriba variantlarini dalaga joylashtirishdan oldin maydonning besh nuqtasidan konvert usulida tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamidan hajm og'irlik hamda g'ovaklik xossalari va suv o'tkazuvchanlik xususiyatlari aniqlab borilgan.

2-jadval

Tajriba olib borilgan dalalarning dastlabki agrofizik xossalari

Yillar	Tuproqning hajm og'irligi, g/sm ³		Tuproqning g'ovakligi, %		Tuproqning suv o'tkazuvchanligi, m ³ /ga
	Tuproq qatlamlari, sm				
	0–30	30–50	0–30	30–50	
2019	1,364	1,446	49,48	46,44	826,4
2020	1,381	1,450	48,85	46,30	802,7
2021	1,335	1,422	50,56	47,33	839,2

Olingan natijalarning ko'rsatishicha, (2019-2020-2021-yy.) tajriba olib borilgan dala tuprog'ining hajm massasi tuproqning 0-30 sm qatlamida o'rtacha 1,364-1,381-1,335g/sm³ ni, g'ovakligi shunga mos ravishda 49,48-48,85-50,56 foizni ko'rsatganligi aniqlangan bo'lsa, tuproqning 30-50 sm qatlamida hajm og'irligi 1,446-1,450-1,422 g/sm³ ni, g'ovakligi 46,44-46,30-47,33 foizga teng bo'lib, suv o'tkazuvchanlik qobiliyati 826,4-802,7-839,2 m³/ga ni tashkil etganligi kuzatilgan.

N.A.Kachinskiy klassifikatsiyasi bo'yicha baholaydigan bo'lsak, dala tajribasi olib borish uchun tanlangan maydon tuprog'ining hajm og'irligi, g'ovakligi va suv o'tkazuvchanlik qobiliyati juda yaxshi ekanligi aniqlangan.

Dala tajribalari Samarqand viloyatining qadimdan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlari sharoitida olib borilgan. Tajriba 12 ta variantdan iborat bo'lib, 3 takrorlanishda, bir yarusda joylashtirilgan. Tajriba dalasida egat kengligi 90 sm, uzunligi 50 m. Har bir bo'lakchalar maydoni 360 m², hisobga olinadigan maydon 180 m². Tajribalarning umumiy maydoni 1,3 ga. Tajriba 3 yil davomida 1:1 (g'o'za : g'alla) qisqa rotatsiyali almashlab ekish tizimida olib borilgan. Tajribada g'o'zaning Davlat reyestriga kiritilgan "Omad" navi ekib o'rganilgan.

Bunda tajriba tizimida ko'rsatilgan 1-variantda dala kuzgi shudgor qilinganidan so'ng shu hoida qoldiriladi va erta bahorda tuproq ishlov berish uchun yetilganidan so'ng ekishga tayyorlanib, chigitlar tekis yerga yakkaqator qilib ekiladi va o'simliklar vegetatsiya davrida ma'danli o'g'itlarning N₂₀₀P₁₄₀K₁₀₀ kg/ga me'yorlari bilan oziqlantiriladi. 2-3-4 variantlarda dala kuzgi shudgor qilinganidan so'ng kuzda yer

ekishga tayyorlanib, pushta olinib qo'yiladi va erta bahorda tuproq namligi chigitlarni ekish uchun tavsiya etilgan namlikka yetganidan so'ng pushtaga yakkaqator usulida ekiladi hamda o'simliklarni vegetatsiya davrida ma'danli o'g'itlarning $N_{150}P_{105}K_{75}$ kg/ga me'yorlari bilan oziqlantirilgan. 5-6-7-variantlarda dala kuzgi shudgor qilinganidan so'ng kuzda yer ekishga tayyorlanib, pushta olinib qo'yilgan va erta bahorda tuproq namligi chigitlarni ekish uchun tavsiya etilgan namlikka yetganidan so'ng pushtaga yakkaqator usulida ekilgan hamda o'simliklarni vegetatsiya davrida ma'danli o'g'itlarning $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga me'yorlari bilan oziqlantirilgan.

8-variantda dala kuzgi shudgor qilinganidan so'ng shu holda qoldirilgan va erta bahorda tuproq ishlov berish uchun yetilganidan so'ng ekishga tayyorlanib, chigitlar pushtaga qo'shqator usulida ekilgan va o'simliklar vegetatsiya davrida ma'danli o'g'itlarning $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga me'yorlari bilan oziqlantirilgan. 9-10 variantlarda dala kuzgi shudgor qilinganidan so'ng kuzda yer ekishga tayyorlanib, pushta olinib qo'yiladi va erta bahorda tuproq namligi chigitlarni ekish uchun tavsiya etilgan namlikka yetganidan so'ng pushtaga chigitlar qo'shqator usulida ekilgan hamda o'simliklarni vegetatsiya davrida ma'danli o'g'itlarning $N_{150}P_{105}K_{75}$ kg/ga me'yorlari bilan oziqlantirilgan. 11-12 variantlarda dala kuzgi shudgor qilinganidan so'ng kuzda yer ekishga tayyorlanib, pushta olinib qo'yilgan va erta bahorda tuproq namligi chigitlarni ekish uchun tavsiya etilgan namlikka yetganidan so'ng chigitlar pushtaga qo'shqator usulida ekilgan hamda o'simliklarni vegetatsiya davrida ma'danli o'g'itlarning $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg/ga me'yorlari bilan oziqlantirilgan.

Tajribada azotli o'g'it sifatida ammiakli selitra (NH_4NO_3 – 34% N), fosforli o'g'it sifatida ammofos ($NH_4H_2PO_4$ – 11% N, 46% P_2O_5) va kaliyli o'g'it sifatida kaliy xloriddan (KCl – 60% K_2O) foydalanilgan.

Sug'orishlar ishlab chiqarish sharoitidan kelib chiqqan holda, tuproq namligi 70% ga yetganida olib borilgan va qolgan agrotexnik tadbirlar o'simlik holatidan kelib chiqqan holda tegishli muddatlarda olib borilgan.

Dissertatsiyaning **“Chigit ekish usullari va tup son qalinligini g'ozaning o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi va sifat ko'rsatkichlariga ta'siri”** deb nomlangan uchinchi bobida chigitlarni ekish usullari va tup son qalinligi hamda ma'danli o'g'itlarni qo'llash me'yorlarini g'ozaga o'simligini o'sishi, rivojlanishi va paxta hosildorligiga hamda chigitning sifat ko'rsatkichlariga ta'siri bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

G'ozaga chigitlarining unib chiqishi ekish usullariga bevosita bog'liq ekanligi dala tajribalari o'tkazilgan 2019-2021-yillarda o'z aksini topgan. Chigit ekilgandan keyingi tajriba natijalariga ko'ra, oddiy usulda chigitlar tekis yerga ekilgan variantlarda 5-6 kundan so'ng unib chiqmaganligi, chigitlar kuzgi pushtaga ekilgan variantlarda esa chigitni unib chiqishi boshlanganligi kuzatilgan. Tajribalarimizda chigit ekilgandan 10 kun o'tib o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, 2020-yili pushtaga yakkaqator ekilgan 1-nazorat variantlardagi chigitning 16,8% qismi, kuzgi pushtaga yakkaqator ekilgan 2-3-4-variantlarda nazorat variantiga nisbatan mos ravishda 14,9-15,4-16,3 % hamda 5-6-7-variantlarda esa chigitlarni 18,4-18,6-23,1% ko'proq unib chiqqanligi aniqlangan. Bahorgi tekis yerga qo'shqator usulida chigit ekilgan 8-nazorat variantida unib chiqqan nihollar 18,5% ni tashkil etgan bo'lsa,

Kuzgi pushtaga qo'shqator usulda chigit ekilgan 10-12-variantlarda 8-nazorat variantiga nisbatan 22,0-24,6% hamda 11-12-variantlarda 28,7-30,9% ga ko'proq chigitning unib chiqqanligi kuzatilgan. 16 kuniga kelib, 1-nazorat variantiga 68,9%, 2-3-4-variantlarda 82,4-82,9-85,3%, hamda 5-6-7-variantlarda 84,1-86,9-87,1% chigitlar, 8-nazorat variantiga 70,7%, 10-11-variantlarga 94,1-96,1%, 11-12 variantlarda esa 96,1-96,9% chigitlar unib chiqqanligi aniqlangan. Tekis yerga ekilgan nazorat variantida tuproq haroratning chigit unib chiqishi uchun yetishmasligi natijasida vujudga kelgan noqulay sharoit tufayli 8-10 kunda chigitning 16,8% unib chiqqanligi kuzatilgan.

3-jadval

G'o'za nihollarining unib chiqish dinamikasiga ekish usuli va tup son qalinligining ta'siri, (foiz hisobida) 2020yil.


Va r	Chigit ekish usullari	Kuzatish muddatlari						
		10-kun	11-kun	12-kun	13-kun	14-kun	15-kun	16-kun
1	Bahorda tekis yerga yakkaqator	16,8	23,8	33,4	39,8	46,4	53,8	68,9
2	Kuzgi pushtaga yakkaqator	31,7	38,8	48,2	54,8	62,1	69,8	82,4
3		32,2	39,1	48,7	55,0	62,7	69,9	82,9
4		33,1	40,0	49,6	56,2	63,2	70,4	85,3
5		35,2	42,2	51,8	58,2	64,7	72,2	84,1
6		35,4	42,3	51,9	58,5	64,9	72,6	86,9
7		39,9	43,0	52,6	59,2	65,7	72,9	87,1
8	Bahorda tekis yerga qo'shqator	18,5	25,4	40,0	41,5	48,1	55,6	70,7
9	Kuzgi pushtaga qo'shqator	40,5	47,5	57,1	63,6	70,1	77,8	88,0
10		43,1	50,2	59,7	66,3	72,7	80,5	94,1
11		47,2	54,3	63,7	70,2	76,9	84,6	96,1
12		49,4	56,5	65,8	72,5	79,1	86,6	96,9

Tekis yerga ekilgan nazorat variantlarida tuproq haroratning chigit unib chiqishi uchun yetishmasligi natijasida vujudga kelgan noqulay sharoit tufayli chigitning to'liq unib chiqishi 24-26 kun, pushtaga yakka qator ekilgan variantlarda (2-3-4-5-6-variantlar) chigitning to'liq unib chiqishi 18-19 kun, pushtaga qo'shqator usulida ekilgan (9-10-11-12-variantlar) variantlarda esa chigit to'liq unib chiqishi 16-18 kuni tashkil etgan.

Tuproqning haydov qatlamida harorat va namlikni uzoq vaqt ushlab turishni pushtalarga ekish orqali amalga oshirish mumkin. Bunday agrotexnologiyani qo'llash tuproqning ustki qismidagi harort oddiy usulda tekis erga ekilganiga nisbatan 1,0-3,0 °C yuqori bo'lishi tajribamizda aniqlangan. Bu esa ekilgan chigitlarni barvaqt unib chiqishi va to'liq ko'chat hosil qilishini ta'minlaydi va paxta hosilini oshirgan.

Tajribalarimizda pushtaga chigitlarni yakkaqator usulida ekib, gektariga 110-120 ming tup sondagi ko'chatlarni qoldirilgan, o'g'it me'yori N₂₀₀P₁₄₀K₁₀₀ kg/ga berilgan 5- variantda g'o'za nihollarining har birida o'rtacha 43,2 donadan barg hosil bo'lib, ushbu variantdagi barglarning umumiy yuzasi 3114,4 sm² ni tashkil etgan.

Ushbu variantdagi barcha g'ozaning nihollarining barg sathi hisoblanganda gektar hisobida 25913,4 m² tashkil etgan.



1-rasm. G'ozaning "Omad" navini ko'chat qalinligi va barg sathi o'zgarishi orasidagi korrelyasion bog'liqligi, 1 o'simlik hisobida (2019-2020-yy).

Tajribalarimizda pushtaga chigitlarni yakkaqator usulida ekib, gektariga 110-120 ming tup sondagi ko'chatlarni qoldirilgan, o'g'it me'yori N₂₀₀P₁₄₀K₁₀₀ kg/ga berilgan 5-variantda g'ozaning nihollarining har birida o'rtacha 43,2 donadan barg hosil bo'lib, ushbu variantdagi barglarning umumiy yuzasi 3114,4 sm² ni tashkil etdi. Ushbu variantdagi barcha g'ozaning nihollarining barg sathi hisoblanganda gektar hisobida 25913,4 m² tashkil etdi. N₁₅₀P₁₀₅K₇₅ kg/ga me'yorida o'g'it qo'llanilgan variantlarda bu ko'rsatkichni kamayganligi ko'rinadi. Chigitlar pushtaga yakkaqator ekilgan 5-6-variantlarda 112-148 ming tup/ga, o'g'it me'yori N₂₀₀P₁₄₀K₁₀₀ kg/ga qilib oziqlantirilganda maqbul barg sathiga erishilib, fotosintetik mahsuldorlik yuqori bo'lib hosildorlik yuqori bo'lishi uchun zamin yaratilgan.

